



TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLAR DIVERSIFIKATSIYASINING RENTABELLIK VA LIKVIDLIKKA TA'SIRI

THE IMPACT OF ASSET DIVERSIFICATION ON PROFITABILITY AND LIQUIDITY IN COMMERCIAL BANKS

¹**O'ktamova Nozima
Narzulla qizi**

¹*Toshkent davlat yuridik universiteti, "Davlat boshqaruvi" kafedrası
katta o'qituvchisi, PhD.*

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Ushbu maqolada O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasining moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichlari – rentabellik (ROA, ROE) va likvidlik (LAR) darajasiga ta'siri empirik jihatdan tahlil qilingan. So'nggi yillarda bank sektorida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, faoliyat yo'nalishlarining kengaytirilishi va raqobatning kuchayishi sharoitida, aktivlar portfelining diversifikatsiyasi tijorat banklari uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Tadqiqot 2017–2024-yillar oralig'ida faoliyat yuritgan yirik banklar misolida olib borilib, panel ma'lumotlar asosida ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik panel regressiya usuli orqali tahlil etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, dastlab kreditlar ulushining ortishi banklarning ROA va ROE ko'rsatkichlarini ijobiy ta'sirlantirgan bo'lsa-da, uzoq muddatda bu omil kapital samaradorligining pasayishiga olib kelgan. Boshqa tomondan, keyingi yillarda aktivlar tarkibining diversifikatsiyalashuvi moliyaviy barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kuchaytirgan. Mazkur maqolada tijorat banklari uchun investitsion portfelni shakllantirish, risklarni boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda amaliy va strategik tavsiyalar berilgan.

Eng. - This article empirically analyzes the impact of asset diversification on financial performance indicators – profitability (ROA, ROE) and liquidity (LAR) – in commercial banks of Uzbekistan. In recent years, reforms in the banking sector, particularly the expansion of business activities and intensification of competition, have made asset portfolio diversification strategically important for commercial banks. The study, conducted on major banks operating between 2017 and 2024, examines the relationship between these indicators using panel data and panel regression analysis. The findings indicate that while an initial increase in the share of loans positively influenced banks' ROA and ROE, over the long term, this factor contributed to a decline in capital efficiency. Conversely, the diversification of asset structures in recent years has enhanced financial stability and improved the efficiency of resource utilization. The article provides practical and strategic recommendations for commercial banks on investment portfolio development, risk management, and ensuring financial stability.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, aktivlar divesifikatsiyasi, rentabellik, likvidlilik, ROA, ROE, LAR, bank islohotlari, moliyaviy barqarorlik, O'zbekiston bank tizimi, kredit siyosati, bank risklarini boshqarish.*

❖ *commercial banks, asset diversification, profitability, liquidity, ROA, ROE, LAR, banking reforms, financial stability, Uzbekistan banking system, credit policy, bank risk management.*

Kirish.

Bank tizimi har qanday milliy iqtisodiyotning yuragi bo'lib, moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Bugungi globallashtirish va raqobat muhitida tijorat banklari uchun faoliyat samaradorligini ta'minlash, moliyaviy barqarorlikni saqlash va bozor risklariga chidamli bo'lish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Ushbu omillarga erishishda aktivlar portfelining tarkibi va ularning diversifikatsiya darajasi asosiy determinantalardan biri hisoblanadi.

Diversifikatsiya banklar uchun risklarni kamaytirish, daromad manbalarini kengaytirish va moliyaviy ko'rsatkichlarni barqarorlashtirish vositasi sifatida qaraladi. Shu bilan birga, aktivlarning turlicha shakllarda taqsimlanishi banklarning rentabellik (masalan, ROA va ROE) va likvidlik (masalan, LAR) darajalariga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida aniq va bir yoqlama xulosa mavjud emas. Bu masala bo'yicha turli mamlakatlarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar qarama-qarshi natijalarni ko'rsatishiga qaramay, ayrim tadqiqotlar esa diversifikatsiyaning ijobiy ta'sirini aniqlagan bo'lsa, boshqalar bu yondashuvning ortiqcha operatsion xarajatlar va samaradorlikka salbiy ta'siri borligini ta'kidlaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda bank sektorida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgani, xususan, bank kapitalining oshirilishi, faoliyat yo'nalishlarining kengaytirilishi va banklararo raqobatning kuchayishi fonida diversifikatsiya masalasining dolzarbligi ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasining rentabellik va likvidlikka real ta'sirini empirik jihatdan o'rganish zarurati mavjud.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – 2017–2024-yillar oralig'ida faoliyat yuritgan yirik tijorat banklari misolida aktivlar diversifikatsiyasi va bank ko'rsatkichlari (ROA,

ROE, LAR) o'rtasidagi bog'liqlikni panel regressiya asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot natijalari bank boshqaruvi uchun strategik qarorlar qabul qilishda, xususan, risklarni boshqarish va investitsion portfelni shakllantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Bank faoliyatida diversifikatsiya konsepsiyasi asosiy strategik yo'nalishlardan biri hisoblanib, u orqali moliyaviy institutlar daromad manbalarini kengaytirishga, risklarni pasaytirishga va barqarorlikni mustahkamlashga intiladi. Biroq, aktivlarni diversifikatsiya qilishning rentabellik va likvidlik ko'rsatkichlariga ta'siri bo'yicha ilmiy adabiyotlarda yagona nazariy yondashuv mavjud emas va ushbu munosabatlar murakkab, ko'p omilli va holatga bog'liq xarakterga ega.

Acharya, Hasan va Saunders (2006) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda bank daromadlari tarkibining diversifikatsiyalashuvi ortishi bilan bank riskining oshishini aniqlagan, chunki daromadlarning foizdan boshqa manbalarga siljishi bankni noturg'un bozor sharoitlariga bog'lab qo'yadi. Ular "doimiy daromad va barqarorlik o'rtasida muvozanatni topish zarur" degan xulosaga kelganlar [1].

Stiroh (2004) esa AQSh bank sektoridagi diversifikatsiyaning samaradorlik va riskga ta'sirini baholagan va daromadlar diversifikatsiyasi operatsion xavflarni oshirishi mumkinligini ko'rsatgan [2]. Boshqa tomondan, Lepetit va b. (2008) G'arbiy Yevropa banklari misolida diversifikatsiyaning foyda ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sirini aniqlab, bu banklarning raqobatbardoshligini oshirishini ko'rsatgan [3].

Berger va Bouwman (2009) kichik banklar uchun diversifikatsiyaning likvidlikka salbiy ta'siri borligini, biroq yirik banklar diversifikatsiyadan ko'proq foyda ko'rishini ta'kidlaganlar. Bu nuqtai nazar bank hajmi va boshqaruv sifati diversifikatsiya

samaradorligiga ta'sir qiluvchi muhim omillar ekanini anglatadi [4].

Douglas W. Diamond va Raghuram G. Rajan (2001) esa aktivlar tarkibining likvidligi va diversifikatsiyasi banklarning resurslarga bo'lgan ehtiyoji va xavfga chidamlilik darajasiga bog'liq ekanini e'tirof etgan. Ularning modelida likvid aktivlar ulushi yuqori bo'lsa-da, past daromadli bo'lishi mumkin, bu esa rentabellikni cheklaydi [5].

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar diversifikatsiyaning ijobiy va salbiy jihatlarini yoritadi, biroq uning rentabellik va likvidlikka ta'siri — bankning hajmi, boshqaruv sifati, makroiqtisodiy sharoit hamda davlatdagi moliyaviy institutlar taraqqiyot darajasiga bog'liq. O'zbekiston sharoitida ushbu

bog'liqlikni aniqlash milliy banklar uchun amaliy va strategik ahamiyat kasb etadi va mahalliy tadqiqotlarda esa bu masala yetarlicha empirik tahlil qilinmagan bo'lib, ushbu maqola shu yo'nalishdagi mavjud bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqola ishidagi muammoni o'rganish uchun tizimli tahlil, ilmiy mushohada, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Umuman aytganda diversifikatsiya tushunchasi uch xil ko'rinishda hisoblanadi. Bunda daromadlar, aktivlar va fondlar bo'yicha. Aktivlar bo'yicha:

1-jadval

Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi va rentabelligining dinamikasi [6] (2017–2024-yillar kesimida)

Yillar	Soliq to'langunga qadar sof foydaning jami aktivlarga nisbati (ROA)	Sof foydaning jami kapitalga nisbati (ROE)	Aktivlar	Kreditlar	LAR (Loan-to-Asset Ratio - Kreditlar va aktivlar nisbati) %
01.01.2017	1,9	17,1	84 075,00	52 610,50	62.71 %
01.01.2018	2	15,6	166 631,80	110 572,10	66.36 %
01.01.2019	2	16,2	214 419,60	167 390,60	78.07 %
01.01.2020	2,2	16,7	272 726,90	211 580,50	77.58 %
01.01.2021	2,2	10,3	366 121,1	276 974,8	75.65 %
01.01.2022	1,3	6,1	444 922,5	326 385,6	73.36 %
01.01.2023	2,5	13,3	556 746,3	390 048,9	70.06 %
01.01.2024	2,6	14,2	652 157,1	471 405,5	72.28 %

Moliyaviy ko'rsatkichlar asosida O'zbekiston tijorat banklarining daromadlilik (rentabelligi), aktivlar samaradorligi va kreditlash siyosati tahlil qilindi. Jadvalda quyidagi asosiy indikatorlar ko'rib chiqilgan:

❖ **ROA (Return on Assets)** – sof foydaning jami aktivlarga nisbati;

❖ **ROE (Return on Equity)** – sof foydaning o'z kapitaliga nisbati;

❖ **LAR (Loan to Asset Ratio)** – kreditlar hajmining jami aktivlarga nisbati.

2017-yilda ROA 1,9 foiz, ROE esa 17,1 foiz bo'lgan. Bu banklarning aktivlardan foydalanish samaradorligi o'rtacha bo'lganini ko'rsatadi, biroq kapital rentabelligi yuqori bo'lgan. 2020-yilda ROA 2,2 foiz, ROE esa 16,7 foiz bilan maksimalga yaqin ko'rsatkichga erishgan. Bu davrda banklarning aktivlardan daromad olish darajasi yuqori bo'lgan. 2022-yildan boshlab ROE keskin pasayib, 2023-yilda 13,3 foiz, 2024-yilda 14,2 foiz bo'lgan. Bu banklarning sof foyda hosil qilishda o'z

kapitalidan foydalanish samaradorligi pasayganini bildiradi. ROA esa 2023–2024-yillarda 2,5 foiz darajasida barqaror saqlanib qolgan.

Jadval ma'lumotlarini tahlil qilishda LAR quyidagi formula orqali aniqlandi:

$$LAR(\%) = \left(\frac{\text{Jami kreditlar}}{\text{Jami aktivlar}} \right) \times 100$$

LAR ko'rsatkichi 2017-yilda 62,71 foiz bo'lib, banklar aktivlarining uchdan ikki qismi kreditlarga yo'naltirilgan edi. 2019–2020-yillarda LAR 77–78 foizgacha oshgan. Bu esa banklarning kreditlash faoliyati juda intensiv bo'lganini bildiradi. 2022-yildan boshlab LAR pasayish tendensiyasiga ega: 2023-yilda 70,06 foiz, 2024-yilda esa 72,28 foiz. Bu aktivlar tarkibida kreditlar ulushi nisbatan

kamayganini ko'rsatadi, ya'ni diversifikatsiya boshlangan.

O'tgan yillarda banklar aktivlaridan foyda olishda (ROA) ijobiy va barqaror darajani saqlab qolishga erishgan. Biroq ROE ko'rsatkichining pasayishi banklarning sof foyda hosil qilishda o'z kapitalidan foydalanish darajasi kamayganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, LAR ko'rsatkichi bo'yicha banklar 2019–2021-yillarda yuqori konsentratsiyali kredit siyosatiga tayanishgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich kamayib, aktivlarning boshqa yo'nalishlarga ham taqsimlanayotgani seziladi. Bu tahlil banklar uchun kapital rentabelligini tiklash va aktivlarni diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy barqarorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

2-jadval

Tijorat banklari jamlanma balansi [6]

Ko'rsatkichlar nomi	2020 (mlrd. so'm)	2021 (mlrd. so'm)	2022 (mlrd. so'm)	2023 (mlrd. so'm)	2024 (mlrd. so'm)
Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari	6 533.2	9 734.6	10 866.3	19 309.1	20 201.8
Markaziy bankdagi mablag'lar	14 769.0	18 851.4	31 514.6	36 692.1	33 228.5
Boshqa banklardagi mablag'lar – rezidentlar	10 089.4	14 630.9	17 327.9	21 747.3	24 618.3
Boshqa banklardagi mablag'lar – norezidentlar	15 419.9	21 329.5	31 096.3	31 658.3	37 588.3
Investitsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar	3 157.2	9 447.7	19 633.7	30 571.0	32 548.0
Mijozlarning moliyaviy instrumentlar bo'yicha	1 787.5	1 602.3	1 730.1	2 016.3	2 221.5
Kredit qo'yilmalari, sof	207 646.3	270 212.8	322 318.2	378 909.2	457 841.7
Asosiy vositalar, sof	2 082.8	2 113.9	2 420.9	2 529.7	3 084.9
Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar	3 306.3	7 851.6	12 295.3	12 929.4	9 570.9
Bankning boshqa xususiy mulki	312.1	1 131.2	1 339.9	3 665.0	4 853.9
Boshqa aktivlar	5 299.1	4 121.5	5 119.6	8 105.8	8 177.6
Jami aktivlar	272 726.9	366 121.1	444 922.5	556 746.3	652 157.1

Avvalo, asosiy vositalar (sof shaklda) ko'rsatkichlari 2020-yilda 2,08 trln. so'm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 3,08 trln. so'mni tashkil etdi. Bu esa 5 yil ichida qariyb 48 foizlik o'sishni anglatadi. Mazkur

ko'rsatkichdagi barqaror o'sish banklarning moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Chunki asosiy vositalar tarkibida ko'pincha bank binolari, ofis jihozlari, axborot texnologiyalari tizimlari va

boshqa infratuzilma vositalari mavjud bo'lib, ularning ko'payishi bank xizmatlarining sifat jihatdan takomillashuvini ta'minlaydi. Shu bilan birga, aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlarning o'sishi yanada keskinroq kechganini ko'rish mumkin. 2020-yilda bu ko'rsatkich 3,3 trln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 12,3 trln. so'mga yetgan va 2024-yilga kelib ham 9,6 trln. so'm atrofida saqlanib qolgan. Bu jarayon banklarning kredit portfeli va investitsion faoliyatidan olinayotgan foizli daromadlar hajmi ortib borayotganini anglatadi. Biroq 2023-2024-yillarda biroz

pasayish kuzatilgani, iqtisodiy muhitdagi noaniqliklar yoki foiz stavkalari bo'yicha tartibga solish choralarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, 2020-2024-yillar davomida asosiy vositalarning izchil o'sishi bank infratuzilmasini mustahkamlashga qaratilgan strategiyani ko'rsatsa, aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlarning o'zgaruvchanligi esa banklarning moliyaviy daromad manbalari tarkibida kredit va investitsion faoliyatning ustuvor ahamiyat kasb etayotganidan darak beradi.

3-jadval

Tijorat banklari aktivlarida kreditlar va investitsiyalar ulushi [6] (2017-2024-yillar kesimida)

Yil	Kreditlar ulushi (%)	Investitsiyalar ulushi (%)
2017	62	3
2018	68	3,3
2019	72	3,7
2020	76	4,0
2021	73	4,5
2022	71	5,0
2023	68	5,2
2024	70	5,5

Bir qancha iqtisodchi olimlar o'z ishlarida aktivlar diversifikatsiyasini tahlil qilishda aktivlar, moliyalashtirish va daromadlar xilma-xilligini o'zgartirilgan Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) yordamida o'rganishgan [7].

$$HHI = \sum_{i=1}^n (S_i)^2$$

Bu yerda:

S_i — i-turdagi aktivning jami aktivlar tarkibidagi ulushi (foiz emas, balki nisbiy ko'rinishda: ya'ni o dan 1 gacha).

n — aktivlar soni (jadvalda 10 ta asosiy aktiv turi, ba'zi yillar bo'yicha bo'sh qolgan bo'lishi mumkin).

Diversifikatsiya indeksi 1 dan HHI ni ayirish orqali tuziladi, shu bois indeks xilma-xillik darajasi ortishi bilan ko'payadi. Diversifikatsiya indeksini esa quyidagicha hisoblashimiz mumkin:

$$\text{Diversifikatsiya indeksi} = 1 - HHI$$

Yoki

$$AST_DIV = 1 - \left(\frac{\text{Net loans} - \text{Other earning assets}}{\text{Total earning assets}} \right)$$

Diversifikatsiya indeksi HHI qiymatidan chiqarilgan teskari o'lchov bo'lib, 1 ga yaqinlashgan sari aktivlar tarkibi diversifikatsiyalashgan (ya'ni bir turdagi aktiv ustunlik qilmaydi) bo'ladi va birgina 2024-yil hisobida quyidagi tartibda hisoblanadi:

$$HHI_{2024} = 0.031^2 + 0.051^2 + 0.037^2 + 0.044^2 + 0.050^2 + 0.005^2 + 0.702^2 + 0.030^2 + 0.030^2 + 0.007^2 + 0.013^2$$

So'nggi yillarda (2022-2024) diversifikatsiya indeksi asta-sekin oshgan — bu bank aktivlari tarkibi biroz balanslashganini anglatadi va grafik shaklida ifodalanishini quyidagicha ko'rishimiz mumkin:

4-jadval

Bank aktivlari tarkibining diversifikatsiyasi (2017-2024-yillar kesimida) [6]

Yil	HHI (konsentratsiya indeksi)	Diversifikatsiya indeksi
2017	0.42	0.58
2018	0.45	0.55
2019	0.60	0.40
2020	0.59	0.41
2021	0.55	0.44
2022	0.52	0.48
2023	0.48	0.52
2024	0.50	0.49

Xulosa va takliflar.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston tijorat banklarida aktivlar diversifikatsiyasi bilan daromadlilik va likvidlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik mavjudligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. 2017-2024-yillarda faoliyat ko'rsatgan tijorat banklari tahlili shuni ko'rsatadiki, aktiv portfellaridagi tarkibiy o'zgarishlar - xususan, kreditlar ulushining kamayishi va investitsiyalar kabi boshqa moliyaviy vositalar ahamiyatining ortishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Herfindahl-Hirschman indeksi (HHI) yordamida baholangan diversifikatsiya darajasi so'nggi yillarda izchil ravishda yaxshilanib bormoqda, bu esa aktivlarning yanada muvozanatli taqsimlanayotganini ko'rsatadi.

ROA (Aktivlar rentabelligi) butun davr mobaynida nisbatan barqaror bo'lgan bo'lsa-da, ROE (Xususiy kapital rentabelligi) sezilarli tebranishlarni boshdan kechirdi. Bu esa sof foyda olish uchun xususiy kapitaldan foydalanish samaradorligining bir xil emasligidan dalolat beradi. Dastlab yuqori

darajada bo'lgan LAR (kreditning aktivlarga nisbati) keyingi yillarda pasayish tendensiyasini ko'rsatdi. Bu bank aktivlari strategiyasining kredit konsentratsiyasidan ko'proq diversifikatsiyalangan aktivlarga o'tishini aks ettiradi.

Ilmiy adabiyotlarga ko'ra, aktivlarni diversifikatsiya qilishning daromadlilik va likvidlikka ta'siri vaziyatga bog'liq bo'lib, bankning aktivlar hajmi, boshqaruv sifati, bozor sharoitlari va makroiqtisodiy muhit bilan bevosita aloqador. Kredit portfelli bank aktivlari tuzilmasida ustunlik qilishda davom etayotgan bo'lsa-da, investitsiya faoliyatining asta-sekin kengayib borishi portfel muvozanatiga erishish va yagona aktiv turiga bog'liqlikni kamaytirish strategiyasi shakllanayotganidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston bank sektori uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lib, moliyaviy boshqaruv, xatarlarni kamaytirish va investitsiyalarni strategik rejalashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun ishonchli tahliliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Viral Acharya; Iftekhar Hasan and Anthony Saunders, (2006), *Should Banks Be Diversified? Evidence from Individual Bank Loan Portfolios*, *The Journal of Business*, 79, (3), 1355-1412.
2. Kevin Stiroh, (2004), *Diversification in Banking: Is Noninterest Income the Answer?*, *Journal of Money, Credit and Banking*, 36, (5), 853-82.
3. Lepetit, Laetitia & Nys, Emmanuelle & Rous, Philippe & Tarazi, Amine, 2008. "Bank income structure and risk: An empirical analysis of European banks", *Journal of Banking & Finance*, Elsevier, vol. 32(8), pages 1452-1467, August.

4. Berger, A. and Bouwman, C. (2009) *Bank Liquidity Creation. The Review of Financial Studies*, 22, No. 9. <http://dx.doi.org/10.1093/rfs/hhn104>

5. Douglas W. Diamond and Raghuram G. Rajan, 2001. "Liquidity Risk, Liquidity Creation, and Financial Fragility: A Theory of Banking" *Journal of Political Economy* Vol. 109, No. 2 (April 2001), pp. 287-327 (41 pages) Published By: The University of Chicago Press.

6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

7. R. Elsas, A. Hackethal, M. Holzhauser. *The anatomy of bank diversification. Journal of Banking & Finance*, 34 (2010), pp. 1274-1287, 10.1016/j.jbankfin.2009.11.024

